

Опубликовано на Aloqabank.uz (<http://aloqabank.uz>)

Masofaviy bank xizmatlari

Hisob xizmatlarining sifatini, ishonchliligini va tezkorligini oshirish uchun AT «Aloqabank» o`z mijozlariga "Bank-Mijoz" elektron to`lovlar tizimini taqdim etadi. "Bank-Mijoz" tizimi mijoz va bankning uzoqlashgan holdagi o`zaro aloqadorlik tamoyiliga asoslanadi va AT «Aloqabank»da ochilgan hisob raqamlari bilan, mijozning joylashuvi va hududiy uzoqligidan qat'iy nazar ish yuritishga yordam beradi.

"Bank-Mijoz" tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

- xodimlar ish kunini tejash;
- to`lovlarni o`tkazish ishonchliligini oshirish;
- hujjatlarni qayta ishlash jarayonini osonlashtirish;
- hisob raqami bo`yicha operatsiyalar to`g`risidagi ma'lumotlarni tezkor olish;
- bank ma'lumotlar bazasiga kirish.

"Blank-Mijoz" tizimi Mijozga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- bank bilan so`m va valyuta to`lov hujjatlari bilan almashish;
- bank bilan erkin formatda hujjatlar bilan almashish;
- mablag`larni horijiy valyutada sotish va sotib olish;
- avtomatizasiyaga alohida e'tibor qaratmaslik;
- pul mablag`lar harakatini bank hisob raqamlarida nazorat qilish.

"Bank-Mijoz" tizimi elektron hujjataylanmasi sxemasi quyidagicha ko`rinishga ega:

- mijoz, maxsus dasturiy ta'minot orqali tuzilgan va imzolangan elektron hujjatlarni (to`lov guvohnomalari, o`tkazish uchun arizalarni va boshqalarni) bankga o`tkazadi;
- bank xodimi ushbu hujjatlarni qayta ishlaydi (to`g`ri to`ldirilganligini va elektron imzolarning haqiqiylikini tekshiradi);
- mijoz, bank tomonidan birlamchi qayta ishlashning natijalarini (bank tomonidan qayta ishlash uchun qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi va uning sababini ko`rsatuvchi ma'lumotlarni) oladi;
- bank xodimi ish kunining yakunida har kuni mijoz hisob raqami bo`yicha ko'chirmasi bilan elektron hujjatni tuzadi va uni imzolaydi;
- bank tomonidan xujjat qabul qilga kunining ertasiga, mijoz o`z hisob raqami ko`rsatilgan vipiskani oladi.

"Bank-Mijoz" tizimi mijoz vaqti va xarajatlarini tejaydi:

- tizim O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki yo'riqnomalari, banklar ma'lumotnomalari, mijoz ma'lumotlariga muvofiqlik nazoratini nazarda tutadi;
- barcha kerakli ma'lumotlar muntazam ravishda yangilanib turadi;
- summani to`lov hujjatiga kiritayotganda, mijoz QQS hisobi bo`yicha, summani valyutadan so`mda hisoblashda konvetasiya uchun foizlarni inobatga olib, xizmat funksiyalaridan foydalaniladi;
- mijoz bank xodimi tomonidan qayta ishlanayotgani to`g`risida yoki hujjatlar nima sababaga ko`ra qayta ishlashga olinmaganligi qayd qilingan hujjatni bankdan oladi. Mijoz doimo kamchiliklarni bartaraf qilishga imkoniyatga ega bo`ladi;
- bank va mijoz o`rtasida hujjatlarning ayirboshlanishi har aloqa seansida ikki tomonlama, ya'ni mijozdan bankga va bankdan mijozga amalga oshiriladi. O`zaro aloqa tizim markaz serveri orqali amalga oshiriladi.

Masofaviy bank xizmatining yagona serveri quyidagilarni kafolatlaydi:

- mijoz hujjatlarini qayta ishlashning yagona qoidalari;
- Integratsiyaning yagona mexanizmlari, doimiy integrasiya va versiyalarning o`zgarishidagi tizimlar muvofiqlashtirilishi bank va mijoz orasidagi uzoq muddatli bitimlarida tartibga solinadi;
- ma'lumotlarning markazlashgan holda saqlanishi;
- kriptohimoya vositalarning qo`llab-quvvatlanishi;
- yuqori unumdorlikni va ishonchlilikni, shu jumladan, nagruzkani taqsimlash shaxsiy tizimi hisobiga.

"Bank-Mijoz" - yopiq kommunikatsion tizimdir. Uning xususiyatlaridan biri, anonim operatsiyalarning o`tkazish imkoniyatining yo`qligi, ya'ni operatsiya kimning registrasion nomidan amalga oshirilayotganini avtomatik ravishda aniqlaydi, buning uchun esa foydalanuvchini tasdiqlovchi barcha kerakli ma'lumotlarga ega bo`ladi.